

## Dissertatsiya kafedra muhokamasida

Ilmning qiymati uning amaldagi ifodasi bilan. Ana shundagina natija va samaradorlik tushunchalari o'z mohiyatini namoyon etadi. Navbatdagi dolzarb mavzudagi dissertatsiya muhokamasida ana shu masalalarga e'tibor qaratildi.

“Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrasida 3 - bosqich doktoranti t.f.n. Pirimov Odil Jo’rayevich 2018 yil 28 dekabr kuni o’zining “Urug’lik chigitni ekologik sof zararsizlantirish uchun elektr texnologiya va texnik vositalarni yaratishning ilmiy - texnik asoslari” mavzusidagi 05.05.07 - “Qishloq xo’jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalar” ixtisosligi bo’yicha texnika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya ishini kafedra muhokamasidan o’tkazdi.

Muhokamada 19 kishi ishtirok etdi. Jumladan, O’zRFA akademigi, t.f.d. Zaxidov R.A., Krakov universiteti tadqiqotchisi, t.f.d., prof. Tursunov O.B., t.f.d., prof. Isaqov A.J., t.f.d., prof. Yusubaliyev A., “O’zbekenergo” AJ Ilmiy-texnika markazi direktori o’rinbosari t.f.d., prof. Ishnazarov O.X., t.f.d., SKB boshqarma boshlig’i t.f.d., prof. Xudayarov M.B.lar o’z mulohazalari bilan o’rtoqlashishdi.



**ET va KTEM kafedra mudiri D.B.Qodirov axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**